

TARBIYADA OILAVIY UDUMLAR VA AN'ANALAR

**Muxtorqulova Rushona Zohidjon qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*  
*muxtorqulovarushona@gmail.com*

*"Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman".*

**Sh.Mirziyoyev**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolaning mazmuni umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarbiya, urf-odat, milliy an'analar, tarbiyalash usullari, oilada tarbiyaviy metodlar*

An'ana tushunchasida muayyan marosimlar va urf-odatlar, axloq qoidalari birlashadi. An'ana o'ziga xos integratsiyalangan va ahamiyatli hodisa bo'lib, unda avlodlarning ijtimoiy hayotga bog'liq tajribasi umumiy shaklda aks etadi. An'ana qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lib, u ijtimoiy va madaniy merosda uzoq davrlar mobaynida saqlanadi, keyingi avlodlar tomonidan qabul qilinadi va yil davomida yangi elementlar bilan boyib boraveradi. Binobarin, an'ana muayyan marosimlarga udumlarga, urf-odatlariga qaraganda ancha keng va umumlashgan hodisadir. Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. O'zbek xalqining oilaviy marosimlari tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig'iriqlaridan o'tib, muhim manaviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Xalqimizning avlodlardan avlodga o'tib ketayotgan oilaviy marosimlari sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga uchragan bo'lsa ham, mustaqillikka erishilgandan so'ng ular qayta tiklana boshlandi. Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, tasirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan odob-axloq, mehr-oqibat kabi hislatlar yoshlar manaviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy an'analar va marosimlar

bolada oilaviy hayot tarzining barqarorligi tuyg'usini shakllantirishga imkon beradi. Misol uchun, hech narsadan qat'iy nazar, biz yaratgan narsa amalga oshadi. Bundan tashqari, kundalik marosimlar sizning kichkintoyingiz bir kun kelib farzandlari bilan baham ko'radigan noyob bolalik xotiralarini yaratadi. "Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishi oila tarbiyasi asosida amalga oshadi".<sup>3</sup>Oila an'analari bolaga o'z oilasi va o'zi bilan faxrlanish tuyg'usini his qilish imkonini beradi. Har birimiz oilalarda bolalardan nevaralarga o'tadigan o'z an'analaramizni yaratishimiz mumkin va hokazo. Faqat bu holatda u yoki bu voqea bola uchun yorqin va esda qolarli, eng muhimi ijobiy ekanligini hisobga olish kerak, shunda takroriy hodisa kuzatilishi mumkin. albatta, hech narsadan qat'iy nazar, va eng muhimi, bu an'anaviy tadbirda bolaning his-tuyg'ulari va idrokiga ta'sir qiladigan narsa bo'lishi kerak. Marosim va bayramlar inson hayotining uzviy qismi hisoblanadi va uning tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. Bir narsa, aniqki bizdan farzandlarimizga qoldiradigan eng yaxshi narsamiz, bu go'zal xulqdir. Mol-dunyo qoldirganimiz ham yaxshi, lekin ta'lim-tarbiya berishni ham unutib qo'ymaylik. Hech o'ylab ko'rganmisiz nima uchun ota-onangiz ishlayapti?

Ular shunchalik ish bilan bandki, ba'zan nima uchun ishlayotganligini ham unutib qo'yadi. Lekin, asosiy muammo bunda emas. Asosiysi ularning maqsadida!

Oramizda ko'pchiligimizning ota-onamizni ishlashidan asosiy maqsad, farzandlariga mashina, uy-joy, ko'p pul qoldirishdir. Ular eng yaxshi kiyimlarni kiyishlari, eng yaxshi uyda yashashlari, eng zo'r mashinani haydashlari kerak. To'g'ri, bularning nimasi yomon?

Lekin, gap shundaki, faqat moddiyat tarafdin o'ylab, tarbiyaga sarflanishi kerak bo'lgan vaqtlarini ham ishga sarflab qo'ymayaptilarmi? Ularning faqat qorinlariga va kiyimlariga pul sarflab qo'ymayaptilarmi?

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi",

<sup>3</sup> J Hasanboyeva, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov "Pedagogika". —Toshkent "Noshir" 2011-yil 256-bet

deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan. "An'analarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy mazmuni turli tarixiy davrlarda, ayniqsa keskin kurashlarda yaqqol ko'rinadi. Ommaviy xalq harakatlari, inqilobiy janglar avj olgan davrda ham kishilar ijtimoiy qiziqishlar bilan yashaganlar. Yuksak g'oyalar uchun kurashgan vaqtlarda ham an'analar tarkib topgan" <sup>4</sup>Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Yurtimiz ulamolari o'z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo'lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta'kidlaganlar:

- farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga e'tibor qarating;

---

<sup>4</sup> R.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". —Toshkent. "Tib-kitob" 2010-yil 197-bet

- odamlar xursandchiligini baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling;

- farzandingizga o'zgalalar bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, o'zgalarni mensimaslik, obro'si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko'rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

- yoshi ulug' kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e'tibor bering.

Bola o'yinchoqni sindirdi...! Otasi farzandiga o'sha zahoti o'rniga yangi o'yinchoq sotib olib bersa, bu bilan farzand moddiy ashyolar qiymatini bilmaydi va bu ishi bilan ota farzandi tarbiyasini xarob qilgan bo'ladi.

Bola axlatni yerga tashladi...! Onasi baqir chaqir qilib so'ngra, yerni tozalab qo'ysa, bu bilan farzand xatolariga mas'ul ekanini bilmaydi va ona ham o'zini o'zi girdobga tashlaydi.

Ahyonda farzandimizni noto'g'ri tasarruf qilishga undaymizda, keyin ulardan noliymiz, malomat qilamiz. Aslida o'zimiz tarbiya uslubimizni unutib qo'ygan bo'lamiz.

O'zbek xalqi farzandini har tomonlama ham diniy ham dunyoviy bilimga ega bo'lishini istaydi hamda shu asnoda farzandlariga boshlang'ich tarbiyani berishni oiladan boshlaydilar. Farzandingizda Qur'onga bo'lgan muhabbatni qanday uyg'otish mumkin?

- Uning oldida Qur'on tilovat qiling. Chunki farzand ota-onasini o'ziga namuna qilib oladi.

- Unga o'z ismi yozilgan maxsus mus'haf hadya qiling.

- Tilovat qilayotganida ovozini yozib oling va uni chiroyli iboralar bilan maqtang.

- Ma'lum qismni yod olgandan keyin sovg'alar bilan rag'batlantiring.

- Uyguga ketayotganida Qur'ondagi qissalardan o'qib bering.

Uning oldida Qur'onga hurmat ko'rsating, Qur'onni ulug'lang.

- Qur'on hofizlarini uning yonida maqtang.

- Shu tariqa qalbida Qur'onga bo'lgan muhabbatni oshiring.

Farzandlarga qadimdan shakllanib kelayotgan qadriyatlarga tayanib tarbiya beramiz. Yaxshi amallarni o'rgatib ko'nikma hosil qildirishga urinamiz ammo har doim ham biz o'ylagandek ijobiy natijaga erisha olmaymiz. Shunda biz turli jazolashlarni qo'llashimiz mumkin. 7 yoshdan kichik bolalar! Ularni urish mumkin emas. Chunki bu yoshdagi bolalar nima to'g'ri, nima noto'g'ri ekanini farqlamaydigan yoshda bo'ladilar. Ularni urish ruhiyatlariga

yomon ta'sir ko'rsatadi. 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni biror ishi uchun jazolasangiz ham, yana takrorlayveradilar. Aytishlaricha, o'tgan asrlarda ayol farzandini emizmoqchi bo'lsa, "bismillax"ni aytib, so'ngra farzandi buyuk shaxs bo'lishini niyat qilib, emizar ekan. Farzandi voyaga yetgach, qo'rqmas chavandoz yoki zabardast olim, yoki mohir yo'l boshchi bo'lib yetishar ekan. Shuning uchun ota bobolarimiz buyuk shaxs bo'lishgan. Ammo bugungi kunda aksar ayollarimiz farzandlarini uxlatish niyatida emizishadi. Shuning uchun ummatning aksari mudroq va uyqudadir..

Siz farzandingiz bilan o'ynamas ekansiz, har doim telefon berib qutular ekansiz, jajji go'dakning telefonga mukkasidan ketishdan boshqa iloji yo'q! Buning oldini olish uchun, albatta siz farzandlaringiz bilan ko'proq birga vaqt o'tkazishingiz axloqli tarbiyalab ularni kelajagi uchun mustahkam poydevor o'rnatishimiz lozim.

Oilangizning ta'minotiga, himoyasiga, hamda ta'lim-tarbiyasiga e'tiborsiz bo'lmang. Zero, ular zimmangizdagi omonatdir. Har qanday yaxshiligingizga — xoh moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy — eng haqli bo'lganlar o'z oilangizdir. Bu yo'lda qadriyatlarimizdan, urf-odat, milliy an'analarimizdan samarali foydalanish esa o'zbekligimiz belgisidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. J. Hasanboyeva, X.A.To'raqulov, I.Sh.Alqarov, N.O'.Usmanov "Pedagogika". —Toshkent "Noshir" 2011-yil 256-bet
2. N.Atayeva, F.Rasulov, S.Hasanov "Umumiy pedagogika" — Toshkent 2011
3. R.Mavlonova, B.Normurodova, N.Rahmonqulova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". —Toshkent "Tib-kitob" 2010-yil 200-197-bet
4. P.M.Po'latova. Maxsus pedagogika : Oligofrenopedagogika/—T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
5. L.R. Muminova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. "Maxsus psixologiya". —Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.-272b